

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2022-12/4

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2022

Бош муҳаррир:*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.***Бош муҳаррир ўринбосари:***Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.***Таҳрир ҳайати:**

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.
Абдуллаев Баҳром Исмоилович, ф-м.ф.д.
Абдуллаев Равшан Бабажонович, тиб.ф.д., проф.
Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.
Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.
Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.
Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.
Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.
Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.
Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.
Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.
Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.
Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.
Дўсчанов Бахтиёр, тиб.ф.д., проф.
Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.
Жугинисов Тангирберген Исаевич, б.ф.н., доц.
Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.
Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.
Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.
Каримов Улғубек Темирбаевич, DSc
Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.
Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.
Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.
Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.
Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.
Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.

Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.
Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.
Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д., проф.
Рашидов Негмурод Элмуродович, б.ф.н., доц.
Рўзбоев Рашид Юсупович, тиб.ф.д., проф.
Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.
Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.
Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.
Сапарбаева Гуландам Машиариповна, ф.ф.ф.д.
Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.
Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.
Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик
Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.
Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.
Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.
Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.
Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.
Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.
Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.
Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.
Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.
Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.
Худайбергана Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№12/4 (96), Хоразм Маъмун академияси, 2022 й. — 208 б. — Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими — Хоразм Маъмун академияси

МУНДАРИЖА ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Abdulloyeva K.M. Zamonaviy tilshunoslikda ilmiy paradigma klassifikatsiyasi hamda badiiy adabiyotda tasviriy ifodalardan foydalanish	5
Allamberganova M.R. Kognitiv tilshunoslikda metonimiya masalasi	8
Alimova K.T. Nutq madaniyati va uning aspektlari	10
Almatova Sh.T. Abdulla Qahhor hikoyalaridagi xususiy-muallif (favqulodda) o'xshatishlar	13
Anorboyzoda F.S. Lirikada sujet va kompozitsiya	16
Atamurodova Q.G'., Qobilova M.M. Radiojurnalist nutqida qo'llanuvchi leksik vositalarning xususiyatlari	19
Barotova M.O. "Oyoq" leksemasi asosida shakllangan paralingvistik vositalar tahlili	21
Dzhelyalov M.Z. Hydronomies in linguistics	24
Jamilova N.A., Abduraximova G.X. Nemis adabiyoti va tarjimalar	27
Jo'rayev I.M., Jo'rayev H.A. Xalq maqollarida oila va ijtimoiy masalalarning qo'yilishi	29
Jumaniyazov A.J., Jumaniyazova D.A. Sanskrit va prakrit tillari xususida	32
Ibragimova N.G. Persian assimilation layer of modern uzbek lexicon	35
Ismoilova D.R. Basic approaches in the study of criminal semantics	38
Karimova M.Yu. Teran idrok, zakovat va sobitqadamlikni talab qiluvchi soha	41
Khayitova F.A. Toponyms with figurative meaning (metaphoric and metonymic) in english and uzbek languages	44
Komilova G.O. Ingliz adabiyotshunosligida bilingual shariyatning tarixiy shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari	47
Masharipova L.A. O'zbek va Amerika madaniyatidagi maqol va matallar	50
Mavlanova N.O'. Ingliz va o'zbek tillarida iqtisodiy sohasida keng qo'llaniladigan terminlarni aniqlash	54
Nasridinov M.V. "Maqsad" konseptini voqelantiruvchi vositalarning translatologik aspekti va ularning izomorfik hamda allomorfik jihatlari	58
Rahimova M.O. Leksik antonimiyada belgilik	60
Ro'zimurodova N. Salim Ashur ijodiyotida muhabbat mavzusini yorqin jilolari	63
Ruziyev H.B. Navoiy romani inglizcha tarjimasida maqollarning berilishi	65
Sobirova M.J. Terminologik axborot-qidiruv tezauruslari	68
Teshaboyeva Z. Abduqayum Yo'ldosh nasri uslubining ayrim qirralari xususida	70
Tojiboyeva M. Mumtoz nasr va jadid hikoyachiligi xususiyatlarining sintezlashuvi	72
Umarqulova M.B. Theoretical analysis of color words in English and Uzbek languages linguaculturology	75
Yuldasheva Z. Takroriy birliklarning ba'zi xususiyatlari haqida	78
Yunusova H.R., Ahmedova M.A. Enjambement as a poetic figure (on the examples of contemporary uzbek poetry)	81
Абдуллаева Н.Р. Классификация пословиц и поговорок в сопоставляемых языках	84
Абдуллаева Н.Р. Коронавирус пандемияси неологизмларининг лексик-семантик хусусиятлари	86
Абдуллаева Ш. Жаҳон ва ўзбек адабиётида шайтон неомифологемасининг бадий талқини	90
Баходирова Ф.Б. Прагматизм фалсафасида "фаолият", "фаоллик" ва "қизиқувчан субъект" талқинлари	92
Бердимуратова А.Ж. Способы образования педагогических терминов в каракалпакском языке	98
Жуматов Р. Инонч ва ақида асосидаги инглиз ва ўзбек топонимлари қиёсий антропоцентрик таҳлили	101
Ибрагимова Н.М. Лингвостилистические стратегии развития жанров современного интернет-дискурса	108
Исмаилов И.О. Огаҳий тарихий-адабий асарларидан ўрин олган таърихлар ҳақида	111
Ишанқулова Г.Р. Жой номларининг лингвистик таҳлили	119
Кудайбергенова С.П. Когнитив семантикада "концепт" тушунчасининг талқини	121
Мадиева М. Ўзбек миллий брендларининг лингвомаданий хусусиятлари	124
Маҳмудов Р. Огаҳий тарихий асарлари лексикасида учрайдиган айрим янги ясама сўзлар таҳлили	127
Маҳмудов Р. Огаҳий тарихий асарларидаги эроний тиллардан ўзлашган бирликларнинг ўзига хосликлари	131
Мусаева Ф.А. Понятие об антонимах как основном средстве выражения контраста в устной речи	134
Намазова М.У. Рустам Мусурмон ижодининг тараққиёт босқичлари	137

Нафасова В., Жабборов Э. Жанубий Ўзбекистон гидронимларини тадқиқ этишда гидроиндикаторларнинг ўрни	140
Наширова Ш.Б. Инглизча-ўзбекча ва ўзбекча-инглизча ўқув луғатларида кўп маъноли сўз маъноларини фарқлаш муаммолари	145
Расулова З. Ўзбек халқ эртақларида сеҳрли буюмлар семантикаси	148
Рахимов Ж.И. К вопросу об особенностях словообразования в области информационно-коммуникативной технологии в русском и узбекском языках	151
Рахимов Ж.И., Чупанов О.О. К вопросу о возникновении информационно-коммуникативной терминологии в русском и узбекском языке	154
Саидова Н.А. Фэнтези жанрининг тарихий асослари	157
Суярова А.И. Публицистика Шарафа Рашидова	161
Тўраева Д.Д. Ўзбек болалар шеърлятида бадий-эстетик тафаккур	164
Тўраева Д.М. Замонавий пунктуацион тизим тараққиёти	169
Файзиева А.А. Шахсий ривожланишга оид асарларда вақтга оид концептуал метафораларнинг қўлланилиши	172
Ҳамидова Н.У. Ўзбек халқ ўйинлари номларининг лексик таснифи	175
Худойберганов С.М. Ўрганилаётган тилни самарали ўзлаштиришда сўзлар маъноларини англашнинг функционал аҳамияти	177
Чўлиева Н.А. Назар Эшонкулнинг “Ажр” ҳикоясида замон ва маконнинг рамзий ифодаси	181
Шодиева Ш.И. Оламнинг сўзлар воситасида концептлашуви	183
Шомуродова З.Р. Терминларни унификация қилишнинг асосий тамойиллари ва параметрлари	186
Эргашева М.Х. Биографик метод ҳақида	189
Эргашева Н.А. Ўзбек ва рус тилларида предлоғли келишиқ тузилмаларининг мантикий ва когнитив хусусиятлари	192
Эргашова С.Э. Эшқобил Шукур шеърлятининг мавзу кўлами	194
Юлдашев Ф.Х. “Маънавият” лексик-семантик категория сифатида	197
Юлдашев Ф.Х. “Маънавият” лексик-семантик категориясининг иерархик манзараси	200
Юлдашева Д.Н. Тиббий эвфемик маънонинг сукут орқали ифодаланиши	203

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

UO'K 808.5

**ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA ILMIY PARADIGMA KLASSIFIKATSIYASI
HAMDA BADIY ADABIYOTDA TASVIRIY IFODALARDAN FOYDALANISH**
*K.M.Abdulloyeva, tayanch doktorant, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Toshkent*

Annotatsiya. Inson tafakkurini tildan tashqarida tasavvur qilib bo'lmaydi. Inson tomonidan yaratilgan matnlar lingvistik usullar yordamida fikrlash dinamikasi va fikrlarni ifodalash jarayonlarini tasvirlab beradi. Insoniyat tomonidan yaratilgan matnlarni tahlil qilish orqali inson faoliyatining psixikasiga oid tadqiqotlar amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: ilmiy paradigma, qiyosiy-tarixiy metod, germenevtik yondashuv, tasviriy ifodalar, mantiqiy urg'u, ruhiyat.

Аннотация. Человеческое мышление невозможно представить вне языка. Созданные человеком тексты описывают динамику мышления и процессы выражения идей с помощью лингвистических методов. Через анализ текстов, созданных человечеством, проводятся исследования психологии человеческой деятельности.

Ключевые слова: научная парадигма, сравнительно-исторический метод, герменевтический подход, образные выражения, логические акценты, духовность.

Abstract. Human thinking cannot be imagined outside of language. Human-made texts describe the dynamics of thinking and the processes of expressing ideas using linguistic methods. Through the analysis of the texts created by mankind, research is carried out on the psychology of human activity.

Key words: scientific paradigm, comparative-historical method, hermeneutic approach, figurative expressions, logical emphasis, spirituality.

Globalashuv jarayoni bugungi kunda inson hayotining barcha sohalarini qamrab oldi va madaniyatlarning o'zaro ta'siri jarayoni hamda turli fan vakillari o'rtasida madaniyatlararo aloqalarga qiziqish yuzaga keldi. Globalashuv sharoitida madaniyatlararo aloqalar tez-tez kuzatilishi tabiiy hol sanaladi. Madaniyatlararo muloqotni tahlil qilish jarayonida uning madaniy va antropologik jihatlari lingvistik xususiyatlari bilan bir xil darajada tahlil qilinishi lozim. Hozirgi kunda kognitiv tilshunoslik, kognitiv psixologiya, sotsiolingvistika, psixolingvistika, etnopsixologiya, etnopsixolingvistika, lingvistik kulturologiya va boshqalar madaniyatlararo muloqot muammolarini o'rganmoqda [Potebnya, Boldrev, Ashurova, Safarov, Djusupov, Galiyeva, Normurodova].

Zamonaviy tilshunoslik fanida hozirgi paytda uchta ilmiy paradigma mavjud:

- qiyosiy tarixiy – XIX asr tilshunosligiga xos bo'lib qiyosiy-tarixiy usulga asoslanadi;
- tizimli-strukturaviy (system-structural) – so'zga qaratilgan;
- antroposentrik – "shaxsga nisbatan "hamma narsani uyg'unlashtiruvchi" maqomini olgan va shaxsni borliq markaziga qaytargan" [de Kurtene, 1963].

Shu jumladan, N. Karaulov paradigmalarni tarixiy, tizimli, psixologik va ijtimoiy turlarga ajratsa, I. Postovalova immanent-semiologik, antropologik, teoantropokosmik (transsensual) paradigmalarni eslatib o'tadi. Bundan tashqari

V. A. Maslova uch turdagi ilmiy paradigmani takidlaydi:

- qiyosiy-tarixiy;
- tizim-tarkibiy;
- antroposentrik.

Ma'lumki, qiyosiy-tarixiy paradigma tilshunoslikda birinchi ilmiy paradigma bo'lib, qiyosiy-tarixiy metod til tadqiqining birinchi maxsus metodi sanaladi. Tilshunoslarning diqqat-e'tibori paradigma doirasida so'zga qaratildi. Antroposentrik paradigm " tadqiqotchi e'tiborini bilish obyektidan subyektga tomon yo'naltiradi" [Maslova, 2004], binobarin, tildagi shaxs hamda shaxsdagi tilni tahlil qiladi. Baudouin De Courtenay takidlaganidek, "til faqat lingvistik jamiyatni tashkil etuvchi shaxsning ongida, ruhida hamda psixikasida mavjud bo'ladi".

O'tgan asrning 80-90-yillarida til va inson o'rtasidagi munosabatlarni nazariy va amaliy o'rganish davri boshlandi. Tilshunoslikdagi yana bir o'zgarish olimlarning inson tili va uning tafakkuri o'rtasidagi munosabatlar muammosiga bo'lgan qiziqishi ortdi. M.A.Shelyakin tilning semantik tuzilishi subyektiv voqelik, shakllar tuzilishi hamda fikrlash jarayonlari orqali oldindan belgilanadi va insonning dunyodagi o'rnini aks ettirishiga ishonadi. Antropotsentrik paradigma insonni eng muhim omil deb hisoblaydi va til uni muhim hilqat, mavjudlik sharti deb ataydi. Shu orqali madaniyatni tavsiflashda germeneytik yondashuvning qanchalik dolzarbligini tasdiqlash mumkin. Bu yondashuvning mohiyati shundan iboratki, unda matnlar madaniyat majmui hisoblanib, ma'lumotlarni ifodalovchi, shaxsning madaniy yutuqlari natijasi hisoblanadi.

Aytish mumkinki, yangi antropotsentrik paradigma fanda chuqur tarixiy ildizlarga ega. V. von Humboldt fikricha, "tilni o'rgatishda yakuniy maqsad nazardan chetda qolmaydi va boshqa barcha omillar bilan birgalikda inson ruhi intilishlarining eng oliy va umumiy maqsadiga, insonning o'zi hamda atrofidagi ko'rinadigan va yashirin narsalarga bo'lgan munosabatiga xizmat qiladi. Humboldt tomonidan ilgari surilgan g'oyalar A. A. Potebnya ilmiy tadqiqotlarida ishlatilgan. A. A. Potebnya uning antroposentrik qarashini quyidagicha isbotlab beradi: "Haqiqatdan ham, til faqat jamiyatda kengayadi, chunki inson har doim o'z qabilasiga, xalqiga, insoniyatga tegishli bo'lgan butunning bir qismidir, shu sababli faqat o'zining hamda o'zgaralarning g'oyalarni tushuntirish orqali inson o'zini anglab yetadi.

Antroposentrizm tushunchasi zamonaviy tilshunoslikning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi, shu jumladan, " antropotsentrizm ilmiy obyektlar o'rganiladigan sohani o'z ichiga oluvchi asosiy fan tarmog'i hisoblanadi. Ular, birinchi navbatda, insoniyat uchun roli, shuningdek, insonning hayotidagi maqsadlari hamda inson shaxsini rivojlantirish va uni takomillashtirish vazifalariga ko'ra tasniflanadi. Muayyan hodisalarni tahlil qilishda inson asosiy markazda turadi, ushbu tahlilda uning muvaffaqiyati va yakuniy maqsadlarini aniqlashi bilan izohlanadi [Kubryakova, 1998].

Antropotsentrizm - ilmiy bo'lmagan idealistik qarash bo'lib, unga ko'ra inson olamning diqqat markazida va dunyoda sodir bo'layotgan barcha hodisalarning sababchisi sanaladi. Antropotsentrizm zamonaviy tilshunoslikda faol rivojlanayotgan yo'nalishlardan biridir. Antropotsentrizmning muhim bo'g'ini lisoniy shaxs bo'lib, u ilmiy tahlilning yangi predmeti hisoblanadi. Tadqiqotchilarning fikricha, hozirda tilshunoslik fanida fundamental o'zgarishlar ro'y bermoqda, natijada tilni mustaqil tizim sifatida o'rganish hamda insonni "antropologik hodisa" degan qarash shakllana boshladi [Kostomarov, 2014].

Shuni ta'kidlash joizki, antropotsentrik tahlilning namoyon bo'lishi, ayniqsa matnni o'rganishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Lingvopragmatika, madaniy tilshunoslik, kognitiv lingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika, jahon tilshunosligi, etnolingvistika kabi sohalarida tadqiqot obyekti inson omili sanaladi. Tilga antropotsentrik yondashuv shaxsning aqliy faoliyati, semantik dunyosiga asosiy e'tiborni qaratadi hamda mavjud nazariyalarni tahlil qilgan holda til va shaxs tabiatining ahamiyatini va o'ziga xosliklarini aks ettiradi. Shu sababli antropotsentrizm fanning yetakchi tarmoqi sifatida tilning yangi xususiyatlarini ochib beradi. Bundan tashqari badiiy adabiyotda, aniqrog'i badiiy asarda tasviriy ifodalardan turli maqsadlarda foydalanish asarning o'ziga xosligini ta'kidlash bilan bir qatorda, muallifning ichki dunyosi, kechinmalari, o'y-u xayollarini ifodalashga ham xizmat qiladi, deb aytish mumkin. Shu o'rinda tasviriy ifodalarni batafsil o'rgangan hamda muhim manba bo'lib xizmat qiluvchi N.M. Djusupov hamda N.Z. Normurodovlarning asarlariga e'tibor qaratish zarur. Tasviriy vositalar orqali ifodalanuvchi grafik urg'u adresatning e'tiborini adabiy matnning alohida qismlariga qaratishga xizmat qiladi hamda matnda mavjud bo'lgan muhim kontseptual elementlar tuzilishini kognitiv jihatdan faollashtiradi va pirovardida muallif modalligini ifodalash vazifasini bajaradi.

Aksariyat tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, tasviriy ifodalar, eng avvalo, muallif hamda qahramonning hissiy hamda ruhiy holatini ifodalashga qaratilgan bo'ladi [Kuxarenko, 1988; Arnold, 1981]. Tasviriy ifodalar, shuningdek, qo'shimcha – semantik, stilistik va estetik ma'lumot yetkazish vazifasini ham bajaradi. Individual-grafik vositalar sifatida badiiy matnda eng keng qo'llanuvchilar sifatida quyidagilarni aytib o'tishim mumkin:

a) yozuvning o'ziga xosligi (shrift) bilan tavsiflanuvchi tasviriy ifodalar: bosh harf, kursiv yordamida so'z va jumalarni ajratib ko'rsatish, so'z va jumalarni bosh harflar bilan yozish, so'zlarni qalin yozuv bilan ajratib ko'rsatish va b.;

b) tinish belgilari: undov, so'roq belgisi, ellips, ya'ni uch nuqta, hissiy pauzalar, tire, qo'shtirnoq, qavs, chiziqcha, nuqta yo'qligi va boshqalar [Arnold; Kuxarenko, Djusupov, Normurodova].

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, turli tasviriy ifodalardan foydalanish muallif hamda qahramonning hissiy holatini o'quvchiga yetkazib berishda muhim rol o'ynaydi. Badiiy asarda bosh harflardan foydalanish, odatda, berilgan matn qismlarining ahamiyati va muhimligini bildiradi. Ular, shuningdek, intonatsiya, ohang hamda sodir bo'lishi kutilayotgan vaziyat haqida tasavvur uyg'otish vazifasini ham bajaradi. Quyidagi misollarda bosh harflardan foydalanish nafaqat berilgan ma'lumotlar mazmuni ajratib ko'rsatish, balki turli stilistik vositalar (takrorlash, taqqoslash, urg'u) bilan birlashgan holda yuqori darajadagi hissiy taranglikni yuzaga keltiradi.

a) "The Americans are all mystified about why the English make such a big thing out of tea because most Americans HAVE NEVER HAD A GOOD CUP OF TEA. That's why they don't understand." (Douglas Adams, "Tea." The Salmon of Doubt: Hitchhiking the Galaxy One Last Time. Macmillan, 2002)

b) "It seemed to Beach the butler that this young man Marson had Got Above Himself." (P.G. Wodehouse, Something Fresh, 1915)

Kursiv. Badiiy asarda kursivdan foydalanish nafaqat mantiqiy urg'uga, balki matndagi tanlangan so'zlarni hissiy jihatdan ta'kidlash, g'oyaviy jihatdan muhim elementlarning xarakter xususiyatlariga diqqatni qaratishga ham yordam beradi.

a) "Come kiss me, and say goodbye like a man. No, not good-bye, *au revoir*."

(William Graham "Chats With Jane Clermont»)

b) "Then I started reading this timetable I had in my pocket. Just to stop lying. Once I get started, I can go on for hours if I feel like it. No kidding. *Hours*."

(J. D. Salinger "The Catcher in the Rye")

Tasviriy ifodalarning muallif fikrlari, ruhiyatini ifodalash vositasi sifatidagi ahamiyati stilistikada yetarlicha o'rganilmaganligi sababli alohida ko'rib chiqish zarur hisoblanadi. Ularning xususiyatlarini tahlil qilish dekodlashga asoslanadi va bu masalaga so'nggi paytlarda ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Arnold I.V. Стилистика современного английского языка. Стилистика декодирования. – Л.: Просвещение, 1981
2. Baudouin de Courtenay, I.A. Selected works on General linguistics / I.A. Baudouin de Courtenay. – M.: Publishing house of the Academy of sciences of the USSR, 1963. – Vol. 2. – 392 p.
3. Djusupov N.M. Когнитивная стилистика: теория и практика стратегии выдвижения в художественном тексте. – Ташкент, Toshkent, 2019 yil - 464 b.
4. Karaulov, Yu.N. Russian language and linguistic personality / Yu.N. Karaulov. – M.: Publishing House LKI, 2010. – 264 p.
5. Kostomarov P.I. Article "Anthropocentrism as the most important feature of modern linguistics" - Bulletin of the Kemerovo State University, 2014.
6. Kubryakova E.S. Language and knowledge. - M.: Ros. Academy of Sciences. Institute of Linguistics. - M.: Languages of Slavic culture, 2004. -- 560 P. (Language. Semiotics. Culture).
7. Maslova, V.A. Modern linguistic approaches. KSR. Methodical recommendation / V.A. Maslova. –2003. –37 p.
8. Maslova, V.A., (2004). Cognitive linguistics. Minsk: Tetra Systems, pp: 80
9. Normurodova N.Z. Выражение языковой личности в художественном диалоге (на материале английского языка): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Samarqand, 2012.
10. Postovalova, V.I. Linguoculturology in the light of the anthropological paradigm / V.I. Postovalova // Phraseology in the context of culture. – Moscow, 1999.